

**DIALECTICAL FACTOR IN THE FORMATION OF A LANGUAGE PERSON**

**Saatova Surayyo Ismailovna**

Teacher of the Department of Uzbek Linguistics, National University of Uzbekistan

**Abstract:** In world linguistics, since the last quarter of the 20th century, the study of language as the main means of reflecting personal qualities inherent in a person began, in which the worldview of language speakers, their understanding of the world, and their evaluation of it from their own point of view began to be studied. In linguopersonology, one of the fields in this direction, a person who uses and perceives language, who demonstrates his linguistic abilities, social signs, and individual characteristics in the process of communication, is considered a linguistic person, and his speech is studied as a separate phenomenon. The article approaches the definition of a linguistic personality from a linguo-personological perspective, based on the manifestation of dialectal signs in a person's speech.

**Keywords:** Linguopersonology, linguistic personality, idiolect, dialect.

In world linguistics, since the last quarter of the 20th century, the study of language as the main means of reflecting personal qualities inherent in a person began, in which the worldview of language speakers, their understanding of the world, and their evaluation of it from their own point of view began to be studied.

**INTRODUCTION.** O'zbek tilidagi matnlarda shaxs ruhiyatining ifodalanishi, matn mazmunini persepsiyasining xususiyatlari, matn idrokida assotsiativ tafakkurning o'rni kabi masalalarning yoritilishi o'zbek tilshunosligida endigina shakllanayotgan antropotsentrik tilshunoslikning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. B.A.Maslova tilning antropotsentrik tabiati zamonaviy tilshunoslikda asosiy o'rin tutishini aytib, ushbu paradigma nuqtayi nazaridan, "inson dunyoni o'zini anglashi" orqali biladi va bu unga "o'z ongida narsalarning antropotsentrik mohiyatini yaratish" huquqini beradi, bu esa uning "ma'naviy mohiyatini, harakatlarining motivlarini, qadriyatlar iyerarxiasini" belgilaydi deb izohlaydi[3]. L.N.Churilina zamonaviy lingvistik paradigmaning asosiy xususiyatlarini sanar ekan, bir tomondan uning antropotsentrizm, ya'ni insoniy yo'nalish bo'lsa, ikkinchi tomondan, ekstralingvistik omillarning so'zlashuvchi shaxsiga ta'siri bo'lib, ushbu paradigma doirasida tilshunoslikning psixolingvistika, kommunikativ lingvistika, kognitiv lingvistika, diskursiv lingvistika, pragmalolingvistika, sotsiolingvistika, semiotika va boshqalar kabi yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda[10]deb izohlaydi.

Antropotsentrik tilshunoslikning yangi sohasi hisoblangan lingvopersonologiyada lisoniy shaxs tadqiq etiladi. Lingvopersonologiyaning asosiy masalalaridan biri har bir til egasining lisoniy shaxs sifatida tildan foydalana olish imkoniyatlarini ko'rsatib berish, ularning tildan foydalanishdagi o'ziga xosliklarni yoritishdan iboratdir. Tilshunoslikda bu borada qilinayotgan ishlarda til egasiga lisoniy shaxs sifatida qarash, turli lisoniy shaxs tiplarini ajratish masalasi ustuvorlik qiladi. Lisoniy shaxs tiplarini ajratishda shaxsning shevasi ham asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan ishlarda ham badiiy matnda qahramon nutqining individualligini ta'minlashda sheva so'zlarining o'rni va ahamiyati kattaligi alohida ta'kidlanadi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha lisoniy shaxs muammosiga qizishlar ko'paymoqda va lisoniy shaxs turlicha aspektlar nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda.

**MATERIALS AND METHODS.** Milliy tilning turlicha sheva xususiyatlarini lisoniy shaxs nutqidan aniqlash, farqliliklarni o'rganish, taqqoslash bo'yicha rus tilshunosligida bir qator ishlar olib borilgan. Dialekt so'zlovchilarining idiolektidagi taqqoslashlar I.N.Shchukina va V.D.

Lyutikovalarda ham uchraydi [2]. Olima lisoniy shaxsni dialekt egasi sifatida o'rganib, uning nutqiga xos dialektal belgilarni o'rgangan. Jumladan, A.Blok, B.Pasternak va S.Yeseninning o'ziga xos til xususiyatlari, ya'ni idiolektini aniqlashda ular nutqidagi dialekt elementlari asosida tahlil qilgan. O'zbek tilshunosligida ham tadqiqotchi D.Niyozova shevaga ko'ra farqlanish nutqning muhim belgisi sanalishini ta'kidlab, "nutq egalarining qaysi sheva vakili ekanligini namoyon etuvchi lisoniy shaxs tiplarini ajratadi [3]. V.P.Neroznak tomonidan polilekt va idiolekt lisoniy shaxs tiplarini ajratishda dam dialektning ahamiyatini ta'kidlab o'tgan. Ma'lum bir shevalarga xos lisoniy shaxs tiplarini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Zero, shaxslarning shevasini aniqlash orqali millatga xos urf-odat va an'analar, qadriyatlar bilan bog'liq holatlar namoyon bo'ladi. Maqolada nutqida shevaga xos xususiyatlarini ifodalovchi lisoniy shaxslarni badiiy matnlar misolida tahlil qilamiz. Lisoniy shaxsning lingvopersonologik aspekt misolida o'rganilishida semantik, tavsifiy, qiyosiy, tipologik metodlardan foydalanildi.

**DISCUSSION.** Sheva tashuvchilar lisoniy shaxsini o'rgangan E.A. Nekrasova, I.N.Shchukina va V.D. Lyutikovalar badiiy matnda muallif nutqining idiolektini aniqlashda uning nutqida uchraydigan dialektga xos belgilar alohida ahamiyat kasb etishini aytadi. Bizningcha ham, badiiy matnda shaxs nutqida uchraydigan sheva belgilar qahramonlar xarakter xususiyatini yoritish bilan birga muallifning individul uslubi va tildan foydalanishda o'ziga xosligiga ham ishora qiladi. Adabiy tilni o'rganishda shevalar alohida ahamiyat kasb etadi. Lisoniy shaxs nutqidagi sheva xususiyatlarini o'rganish juda muhim. Chunki lisoniy shaxs nutqining sheva jihatdan farqlash, o'rganish orqali milliy tilning boy leksikasi turfa ranglarini aniqlash, ko'p so'zlarning etimologiyasi haqida ham ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Har bir sheva foydalanuvchisi nutqida qo'llanadigan frazema va paremlar, o'xshatishlar o'sha sheva vakillarining yashash tarzi, xarakter xususiyatlari, urf odatlari haqida ma'lumot beradi.

**RESULTS.** Matnlarni lingvopersonologik tahlil qilish jaryonida bir personajning nutqida ham dialektal, ham ijtimoiy qatlamiga xoslik elementlarini ko'rishimiz mumkin. Badiiy matnda qahramonlar nutqidan ma'lum shevaga xos lisoniy shaxslarni yaratish muallifdan yuksak mahorat talab qiladi.

- Siz bunaqa fikriz bilan nima qip adashib kepqoldiyz o'zi bo'tlaga, a? Sudga borsam, uyyi, hovli-joyyi yarmini ukamga xatlab berishadi-ku! Munday kallani ishlatin, brat, kallani!..
- Toshdomla nima derkin endi?
- Kecha kirganman oldilariga. Bo'ladi, o'n kun qatniysan, didila.
- Keyin-chi?
- Nima keyin? Ukam o'z ixtiyori bilan merosdan voz kichadi. Shunaqqip berishga kelishdu.
- Kelishdik?
- Ha, kelishdu. To'g'ri, biroz qimmatroqqa tushvomman. Maylide, manga qovotgan meros oldida bu nimamayam bo'lardi [U.Hamdami. "Ota", 8-9-bet]. Keltirilgan matnda Toshkent shevasiga xos bo'lgan fonetik, morfologik belgilar so'zlovchi lisoniy shaxshini hududiy jihatdan xosligini ta'minlagan. So'z oxirida undosh tovushning tushib qolishi, shaxs-son shaklining qisqargan tarzda qo'llanilishi, so'z tarkibidagi undoshning boshqa undosh bilan almashinishi, so'z oxiridagi unlining o'zgarishi (a tovushining e tovushiga almashinishi) kabi jihatlar lisoniy shaxs individulligini ta'minlagan.

Quyidagi misolda ham shevaga xos soʻzlardan foydalanish orqali yozuvchi lisoniy shaxsning qaysi sheva vakili ekanligini koʻrsatib bergan. Lisoniy shaxs nutqidagi fonetik oʻziga xoslik, tinglovchiga mensimaslik nazari bilan qarash, oʻziga ishonch ohanglarini berishda tovushlarning oʻziga xos tarzda ifodalanishi ham muhim rol oʻynagan.

– Ha-a, yigitcha, yoqmadimi? – Odamni teshib yuboradigan piching ohangida dedi “ma’bud”, – yaxshi-yaxshi, borvur, ertaga holin bundan battar boʻganda yana emelab kelasani-ku! Borvur! Sandaqalani koʻp koʻrganmiza.

– Bundan battari boʻlmaydi! Emaklab qolsam ham sizni oldizga boshqa kelish yoʻq! – Poʻlat bir kilo goʻshtning pulini sanab “ma’bud”ning oldiga qoʻygandi, chol shoshib uni sanay ketdi [U.Hamdam.“Ota”, 18-bet]. Qahramon nutqida qoʻllanilgan borvur (boraver), holin (ng tovushining n shaklida qoʻllanilishi), boʻganda (l tovushi tushib qolgan), emelab (emaklab soʻzining fonetik oʻzgarishga uchrashi) hamda boshqa holatlar lisoniy shaxsning dialektal jihatdan qaysi hududga mansubligini koʻrsatishga xizmat qilgan.

Quyidagi parchada Andijon shevasiga mansub boʻlgan ayol lisoniy shaxsi va oʻgʻil lisoniy shaxsini shakllantirishda yozuvchi buvi, oʻshagʻlarni lekik birliklaridan foydalangan.

– Yoʻq, buvi, siz nimanidir yashirayapsiz?

Halima aya gap topolmay kalovlandi.

– Hech nimani yashirayotganim yoʻq, ogʻlim. Faqat sizlarning qiynalayotganingizni koʻrib oʻpkam toʻlib ketdi. Qoʻy, oʻgʻlim, oʻshagʻlani (U.Hamdam.“Muvozanat”, 95-bet)

Quyidagi matnda ham qoʻllanilgan ena, ovo dialektal birliklari ham hududiy jihatdan mansublikni ifodalash uchun xizmat qilgan.

– Oʻgʻlim, bir qarindoshlarni koʻrib kelsang boʻlardi. Enang ham oʻzini ancha oldirib qoʻygan. Toʻshakka tushib qolgan. Hozir Kenjavoy ovongnikida (U.Hamdam.“Muvozanat”, 57-bet). Ushu parchadagi enang leksemasi soʻzlovchining yoshiga, tinglovchidan kattaligiga, unga soʻzi oʻtadigan shaxs ekanligiga ham ishora qilgan.

Badiiy matnda qoʻllanilgan shevaga xos soʻzlar hududiy jihatdan mansublikni bildirish orqali lisoniy shaxsni ifodalash bilan birga, murojaat odobi, oʻzbeklarga xos kattalarni hurmat qilish xislatlarini ham ifodalaydi.

– Apa, bir duo qiling, – Kenjavoy aka xotini-yu bolalari davrasida duoga qoʻl ochib turar edi (U.Hamdam.“Muvozanat”, 58-bet). Bu matnda apa adabiy tildagi ona soʻzining shevadagi ifodasi boʻlib, qahramon lisoniy shaxsini ifodalashda xizmat qilgan.

Demak, lisoniy shaxsni belgilashda sheva muhim ahamiyatga ega. Sheva belgilari soʻzlashuv nutqida yaqqol namoyon boʻladi. Milliy til egalari nutqida qoʻllangan sheva elementlari orqali turlicha shevaga mansub lisoniy shaxs tiplarini belgilash mumkin.

## REFERENCES

1. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.
2. Лютикова В. Д. Языковая личность: идиолект и диалект: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Екатеринбург, 2000. – 41 с.

3. Маслова В. А. Современные направления в лингвистике. Учебное пособие. – М., Издательский центр Академия, 2008. – 272 с.
4. Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва, 1991. – 220 б.
5. Ниязова Д.Бадий матнда лисоний шахс типлари. Филол.фан. бўйича фалсафа док. дисс. – Қарши. 2020. 136 б.
6. Saatova, S. I. (2024). LINGUISTICS IN UZBEK LANGUAGE FORMATIVE SOCIAL FACTORS. Philological Research: Language, Literature, Education, 3(3), 37–41. Retrieved from <https://journalaltersu.uz/index.php/pr/article/view/50>
7. Ҳамдам Улуғбек. Мувозанат. – Тошкент: Янги аср авлоди.2012.
8. Ҳамдам Улуғбек. Ота. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020.
9. Кочеткова Т.В. Языковая личность носителя элитарной речевой культуры: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Саратов, 1999. – 53
10. Чурилина Л.Н. Языковая личность в художественном тексте. – М.: Филинта, 2017. – 239 с.